

## O'ZBEKISTONDA SANOAT SOHASINI KADRLAR BILAN TA'MINLASH MASALALARI

(qayta qurish yillari matbuot materiallari asosida)

**Tangrikulov Jamshid Erkinovich,**

*Termiz davlat universiteti Akademik litseyi ijrochi direktori*

*tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) [jamshidtangrikulov066@gmail.com](mailto:jamshidtangrikulov066@gmail.com)*

O'zbekistonda sanoat sohasini mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash masalalari o'ziga hos hususiyatlarga ega bo'lib, yillar davomida ishchi kadrlarni tayyorlashda respublika imkoniyatlariga yetarli darajada e'tibor qaratilmay, aksincha ko'plab sanoat sahasi ishchi kadrlar chetdan keltirish hisobiga ta'minlab kelindi. Xalq xo'jaligini ishchi va ilmiy-texnik kadrlarga bo'lgan talabi ilmiy asoslangan izchil tarzda o'rganilmaganligi natijasida kadrlar tayyorlashni rejalashtirishda, bazi sohalarda keragidan ortiq, ayrim sohalarda ayniqsa, ishlab chiqarish tarmoqlarda mahalliy millat vakillaridan ishchi kadrlar tayyorlashga yetarlicha ahamiyat qaratilmadi. 1970-yillar va 1980-yillar o'rtalarigacha bo'lgan davrda yangi shaharlar bunyod etilishi, zavod va fabrikalar qurilishi hamda ularni malakali ishchilar bilan ta'minlashda o'zgacha yo'l olib borildi. Yangi qurilgan va umuman ishlab chiqarish bilan faoliyat olib borayotgan ko'plab sanoat korxonalarini yetarli darajada ishchi kuchi bilan ta'minlashda asosan mahalliy kadrlar bilan emas aksincha, SSSRning markaziy rayonlaridan keltirish hisobiga amalga oshirildi. Shuning uchun ham respublikadagi mavjud korxonalar ko'p millatli mehnat jamoalaridan tarkib topgandi. Masalan, V.P.Chkalov nomidagi Toshkent aviyasiya ishlab chiqarish birlashmasida 50 dan ziyod millat va elatlar vakillari ishlagan<sup>1</sup>.

Sanoat sohasini mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash borasidagi bunday yondashuvlar natijasida respublikamiz ittifoqdosh respublikalar orasida milliy ishchi kadrlar salmog'i bo'yicha quyi o'ringdan birida bo'lishiga olib keldi. Masalan, 1979-yilgi aholi ro'yxatga olinganda, Ittifoq bo'yicha o'zbek ishchilarining salmog'i – 50 foizdan oshmagan bo'lsa, tojiklarda ishchilar salmog'i – 55 foiz, ruslarda – 63 foiz, qozoqlarda – 64 foiz, qirg'izlarda – 56 foizni<sup>2</sup> tashkil etgan.

Asosiy ishlab chiqaruvchi 40 foizdan ko'prog'i tayyorlanayotgan yalpi maxsulotning teng yarmi va xalq xo'jaligida band bo'lgan ishlovchilarning 45 foizi respublika agrosanoat kompleksi xissasiga, mehnat resurslarining 52 foizi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi ulushiga to'g'ri kelgan<sup>3</sup>. O'zbekistonda asosiy ishchi kuchi qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan. O'zR FA Iqtisodiyot instituti olimlari o'tkazgan (aholi zich yashaydigan Namangan va mehnat qiluvchilar yetishmaydigan Jizzax viloyatlarida) sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tub yerli millatga mansub kishilardan 8 va 10-sinf o'quvchilarining atiga 3 foizi maktabni tugatganidan keyin sanoatda ishlashni, salkam 5 foizi qurilishda, 10,4 foizi transport va aloqada mehnat qilishni xohlagan<sup>4</sup>. Shundan ko'rinib turibdiki mahalliy yoshlar orasida sanoat sohasiga qiziqishlari past darajada bo'lgan. Ikkinchidan olib qaraganda ushbu yoshlar orasida sanoat sohasiga qiziqtirish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

<sup>1</sup> Шистер Г. Ўзбекистон кўп миллатли ишчилар синфининг шаклланиши ва ривожланиши // Ўзбекистон коммунисти. 1985. № 10, -Б.37.

<sup>2</sup> Таксанов А. Қишлоқда саноат ишчилар синфининг ривожланиши // Ўзбекистон коммунисти. 1987. №7, - Б.29.

<sup>3</sup> Таксанов А. Қишлоқда саноат ишчилар синфининг ривожланиши. // Ўзбекистон коммунисти, 1987. №7, - Б. 28

<sup>4</sup> Убайдуллаева Р Ўзбекистон меҳнат потенциалидан яхшироқ фойдаланайлик // Ўзбекистон коммунисти. 1987. №10, -Б. 27.

Respublikadagi kadrlar malakasi yetarli e'tibor qaratilmasligi natijasida sanoatning ishlab chiqarish sur'atlariga o'zining salbiy ta'siri ko'rsatdi. Tegishli soha mutasaddilari tomonidan ilgari surilgan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan to'la foydalanish uchun bugungi kunda shunchaki qo'shimcha ishchi kuchlari emas, balki malakali kadrlar kerak. Fan texnika revolyusiyasi ishchilar sinfining tarmoq va professional strukturasi jiddiy o'zgarishlar kiritilmoqda, uning madaniy-texnik darajasini muttasil o'stirishni talab qilmoqda<sup>5</sup> kabi haqli qarashlariga yetarli ahamiyat qaratilmadi. Natijada mahsulotlar ishlab chiqarishga son jihatdan rejaga erishilgani bilan ularni sifatli zamonga hamohang tarzda o'zgarishlardan ortda qolgan holda ishlab chiqarish davom etib bordi. Masalan, Namangan poyabzal fabrikasi direktori respublika rahbariyatiga qilgan murojaatida "...mahsulotlarimizning deyarli barcha turlari ustidan shikoyatlar kelib tushmoqda. Mahsulotning nomi faqat mavsumga qarab o'zgaradi. Ishchilar makasining pastligi sababli yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqara olmayapmiz. Ishchilarni o'qitish uchun murabbiylar, tajribali injenerlar va masterlar kerak ular juda-juda yetishmayapti. Malakali kadrlar yetishmayapti"<sup>6</sup>. Xatto ayrim fabrikalar tekshirilganda dastgoxlarda 4 kishi o'rniga 2 kishi ishlayotganligi mehnat kuchi jamlanmaganligi buning natijasida mahsulotlar standartdan chetlashilgan holda ishlab chiqarilishiga sabab bo'lganligi aniqlangan.

Sovet ma'murlari sanoatdagi koloqlikni ishchi va muhandis texnik xodimlarning tashabbuskorligini oshirish, "sossialistik musobaka" ni keng joriy qilish, "alohida tanlab olingan" ilg'or va jonkuyar ishchilarni "bayroq" sifatida ularni mehnat qahramonlari darajasiga ko'tarib boshqalarga "o'rnak" qilib ko'rsatish yo'li bilan bartaraf qilishga va sanoatni turg'unlik holatidan olib chiqishga harakat qildilar. Lekin ularning tashabbusini "bayroq" qilish, ishchilar o'rtasida "ommalashtirish" O'zbekiston sanoatini turg'unlik holatidan olib chiqa olmadi.

Agar ittifoq sanoatida hamma ishchilarning 38,1 foizi band bo'lgan bo'lsa, O'zbekistonda 25,3 foizi, qishloq xo'jaligida tegishli ravishda 13,1 va 25,9 foizni<sup>7</sup> tashkil etgan. Ko'plab ma'lumotlarda yillar davomida ishchilar salmog'ini keskin tarzda oshganligi ko'rish mumkin. Masalan, 1978-1988 yillarda sanoat ishlab chiqarish ishchi xodimlari soni yengil va oziq-ovqat sanoatida 40 foizga o'sgan<sup>8</sup>. Bunda bir tomondan aholi soni keskin o'sishi deb qaralsa, ikkinchi asosiy sabablaridan biri fan-texnika yutuqlaridan orqada qolishdir. Chunki, fan-texnika inqilobidan orqada qolinishi oqibatida etibor qo'l mehnatiga qaratiladi. Bu o'z navbatida sanoatda ishchi kuchini soni ko'payishiga olib keladi.

Qolaversa, mahalliy aholi industrial sohaga to'liq jalb etilmagan, ular asosan ikkinchi darajali uchastka yoki sexlarda ishlaganlar. Masalan, faqat Toshkent shahrining o'zidagi sanoat korxonalarida, xususan tub joy millat vakillari O'zbekiston qishloq xo'jaligi mashinasozligi ishlab chiqarish birlashmasida 14,0, Toshkent qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodida – 19,0, Chkalov nomidagi Toshkent aviasiya ishlab chiqarish birlashmasida – 21,0, "Etalon" ishlab chiqarish birlashmasida – 22,0, Toshkent lak - bo'yoq zavodida esa – 33,0, Toshkent traktor zavodida – 89,0 foizni tashkil etgan<sup>9</sup>. Sanoatning muhim tarmoqlarida mahalliy aholini ishga qabul darajasi juda ham sekin o'sib borgan. Masalan, mashinasozlik va metalga ishlov berishda,

<sup>5</sup> Шистер Г. Ўзбекистон: кўпмиллатли ишчилар синфининг шаклланиши ва ривожланиши // Ўзбекистон коммунисти. 1985. №10, - Б. 40.

<sup>6</sup> Совет Ўзбекистони. 1989 йил 13 ноябр.

<sup>7</sup> Хожимирзаев М. Ўзбекистоннинг ишчилар синфи: ривожланиши ва муаммолари // Инсон ва сиёсат. 1991. № 9, – Б.19.

<sup>8</sup> Қашшоқлик иқтисодиёти // Фан ва турмуш. 1991. №6, -Б. 2.

<sup>9</sup> Ишсизлик муаммоси ва унинг ечимлари хусусида // Ҳаёт ва иқтисод. 1991. – № 4, – Б. 23.

ximiya va neft ximiyasi sanoati soxasida o'zbek ishchilarining salmog'i ana shu tarmoqlarda band bo'lgan jami xodimlar soniga nisbatan 25 foizdan oshmagan, rangli metallurgiya, ko'mir, neftni qayta ishlash sanoatida 29-32 foiz, qora metallurgiya, elektr energiyasi va binokorlik materiallari sanoatida 38-42, yengil va oziq-ovqat sanoatida 59-68 foizga to'g'ri kelgan<sup>10</sup>.

O'zbekiton qulay imkoniyatlariga qaramay, 1988-yilda sanoat mahsulotlari aholi jon boshiga hisoblaganda Estoniyada – 4,1, Latviyada – 4, RSFSRda – 3,3, Gruziya va Moldoviyada – 2,3 Qozog'istonda – 2,1, Qirg'izistonda – 1,5, O'zbekitonda – 1,2 so'mlik ishlab chiqarilgan<sup>11</sup>. SSSRda xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish aholi jon boshiga – 1168 so'mni, Ukrainada – 1200 so'm, Belorussiyada – 1654 so'm, Litvada – 2442 so'm, Estoniyada – 2510 so'm O'zbekistonda – 470 so'mni tashkil etgan<sup>12</sup>. Garchi ittifoqda xorijiy firmalar bilan birgalikda uch migdan ziyod tashkilot va korxonalar bo'lgan bo'lsada, O'zbekistonda ularning soni 1991-yil iyunida hammasi bo'lib 50 ga yaqin bo'lib, shundan atiga 8 tasi xalq iste'mol buyumlari ishlab chiqargan<sup>13</sup>. Umumun moddiy ta'minotda bo'lgani kabi sanoatda ham ishlab chiqaruvchi kuchlar bir tekisda rivojlantirilmaganini ko'rishimiz mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan boshlagan islohotlar jarayonida mamlakat hayotidagi inqiroz holatidan bartaraf etish borasida belgilangan qator vazifalar o'z yechimini topmadi. 1970-yillar boshlarida respublikamizning o'zida tayyorlangan mahulot bilan aholining eng zarur mollar (kiyim-kechak, trikotaj, poyafzal)ga bo'lan e'tijoinining yarmisigana qondirilgan bo'lsa<sup>14</sup>, 80-yillarning oxirlariga kelib ham bu sohadagi siljish unchalik sezilarli bo'lmadi. Bu davrga kelib, kiyim-kechaklarning chorak qismi, trikotaj byumlar va ip gazlamalaning uchdan bir qismi, poyabzalning deyarli yarmisi chetdan keltirish hisobigina aholi ehtiyoji qondiriladi edi<sup>15</sup>.

Ko'plab korxonalarda aholi talabini o'rganmay turib reja ortidan quvish oqibatida sifatsiz, eskirib qolgan urflar va turlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarishni davom ettirilganligi ma'lum miqdordagi xarajatlar evaziga ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar ko'p hollarda sotilmasdan omborlarda to'planib qolishiga va bundan iqtisodiy zarar ko'rilishiga olib kelgan. Bu yillarda ishlab chiqarishdagi reja topshiriqlarining bajarilishini qat'iyat bilan talab qilinishi davlat qabulini yuzakilashuviga olib keldi. mamuriyat tomonidan belgilangan rejalarni talab qilinishi oqibatida ishlab chiqarishda sifat masalasi sekin-asta ikkinchi darajali masala bo'lib qoldi. Masalan, 1985-yilda respublikada sifatsiz ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun jarimalar to'lash, ularni naxlarni pasaytirish hisobidan 700 mln. so'm zarar ko'rilgan<sup>16</sup>. Andijon poyabzal fabrikasi faoliyati o'rganilganda ishlab chiqarilgan mahsulotlarining kattagina miqdori savdo tashkilotlarining omborxonalarida sotilmasdan to'planib qolganligi aniqlangan.

Bunga korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan har ikki juft poyabzaldan bir jufti belgilangan me'yor talablariga javob bermasligi sabab bo'lgan. Andijon viloyati bo'yicha 1986-

<sup>10</sup> Таксанов А. Қишлоқда саноат ишчилар синфининг ривожланиши // Ўзбекистон коммунисти. 1987. №7, Б.31.

<sup>11</sup> Хожимирзаев М. Ўзбекистоннинг ишчилар синфи: ривожланиши ва муаммолари // Инсон ва сиёсат. 1991. № 9. –Б. 19

<sup>12</sup> Тўраев Р. Маошингиз етарлими // Фан ва турмуш. 1990. № 4, - Б.7.

<sup>13</sup> Зиёдуллаев С. Моддий неъматлар ишлаб чиқаришнинг аҳволи ва резервлари. // Инсон ва сиёсат, 1991, № 9, 38-бет

<sup>14</sup> Юн., Мельникова Д. Некоторые вопросы развития производства предметов и потребления Узбекистане // Коммунист Узбекистана, 1971. №1, -Б,25,

<sup>15</sup> Совет Ўзбекистони. 1990 йил 5 июнь.; Зиёдуллаев С. Моддий неъматлар ишлаб чиқаришнинг аҳволи ва резервлари // Инсон ва сиёсат. 1991. № 9, - Б. 36.

<sup>16</sup> Совет Ўзбекистони. 1986 йил 31 январ.

yilda jami 2 mln. so'mlikdan ziyod 115 ta iqtisodiy jarima solingan, 96 ta holatda mahsulotni realizatsiya qilish taqiqlangan, 16 korxonada esa mahsulot tannarxi yaqin 10 mln. so'mga ortib ketgan<sup>17</sup>. Shuningdek, Andijon viloyatidagi ip-gazlama kombinati tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga 121 ta e'tiroz xati kelib tushgan va 2 mln. so'mdan ortiq jarimaga, tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasiga 76 ta e'tiroz xati so'm 388 ming so'm, poyabzal fabrikasi 75 e'tiroz xati va 221 ming so'm jarimaga tortilgan<sup>18</sup>. Yoki, Farg'ona viloyatining Kirov va O'zbekiston tumanlarida joylashgan tikuv-momiq fabrikalarining 60 ming so'mlikka yaqin mahsulotini realizatsiya qilish vaqtincha to'xtatilgan bo'lsa, Sho'rsuv sopol quvurlari zavodining 85, Kirov rayonidagi Oktabr 40 yilligi sovxoz g'isht zavodining 66, Qo'qondagi 2-paxta tozalash zavodining 94,7, O'zbekiston paxta tozalash zavodining 72,6 ming so'mlik mahsulotida jiddiy nuqsonlar borligi aniqlan hamda bu mahsulotlar sotuvga chiqarilmagan<sup>19</sup>. 1989-yilning 9 oyi mobaynida yengil sanoat tarmoqlarining ishlab chiqarish faoliyati o'rganilganda korxonalar tomonidan sifatsiz mahsulotlar ishlab chiqarilganligi oqibatida tikuv buyumlarining – 14 foizi, charm poyabzallarining – 10 foizi, trikotaj buyumlarining – 18 foizi, paypoqlarning – 15 foizi, shoyi va ip gazlamalarining 7 – 8 foizi navi pasaytirilib, tuzatish (qayta ishlash) uchun qaytarib yuborilgan<sup>20</sup>. Bunday holatlar sarf-xarajatlar hamda iqtisodiy zarar ortib borishiga olib kelgan.

Garchi, 1980-yil oxirlariga kelib, O'zbekiston yengil sanoatida 71 ta korxonalar, shu jumladan, 10 ta ip-gazlama va jun tarmog'iga karashli korxonalar, 11 ta tirikotaj, 12 ta tikuvchilik fabrikasi, 11 ta shoyi hamda noto'qima materiallari ishlab chiqaradigan, 22 ta charm poyabzal, 3 ta chinni korxonalarini faoliyat yuritgan bo'lsada, aholi ehtiyojlarini ta'minlash uchun yetarli bo'lmadi. Shuning uchun ham yengil sanoat mahsulotlarining ma'lum qismini chetdan keltirishga majbur bo'lingan. Qolaversa, ko'plab sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish sur'atlari yil oxiriga kelib miqdor jihatdan ortib borish o'rniga ba'zilarida qisman o'sish kuzatilgan bo'lsa, ayrim tarmoqlarida avvalgi yilga nisbatan pasayish kuzatilgan.

Sovet hokimiyati tomonidan yillar davomida iqtisodiy taraqqiyotning ob'ektiv qonuniyatlariga zid ravishda respublikalarning real imkoniyatlarini hisobga olmasdan olib borgan siyosati keyingi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va boshqa sohalarida tanglik holatini keltirib chiqardi. Mamlakat hayotining barcha sohalarida keskin ijobiy o'zgarishlar yasay olishi kutilgan "Qayta qurish" siyosati demokratlashtirish va oshkoralikka ma'lum darajada yo'l ochib bergan bo'lsada, mamlakat hayotida tub burilish yasay olmadi. Qayta qurish yillarida barcha sohalar qatori sanoat tarmoqlarini rivojlantirish borasida bir qator chora-tadbirlar, xususan sanoat korxonalarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish va undan samarali foydalanish, mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, sifatini yaxshilash bo'yicha qator vazifalar belgilangan edi. Ammo, ushbu dasturda belgilangan rejalarni bajarish bir tomondan, sekinlik bilan amalga oshirib borilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan, mavjud imkoniyatlarni hisobga olmaydigan siyosat belgilangan vazifalarni to'la bajarish uchun imkon bermadi.

Sanoat sohasidagi asosiy muammolar amalda o'z yechimini topmadi. Bular birinchidan, tayyor mahsulot ishlab chiqarishning past darajada tashkil etilganligi, asosiy e'tibor xom ashyoni

<sup>17</sup> Интизои ва уюшқоқликни мустақамлайлик // Коммунист. 1987 йил 8 апрель.

<sup>18</sup> Халқ истеъмол товарларини ишлаб чиқаришни ривожлантириш комплекс программасини амалга ошириш – умумхалқ иши // Коммунист. 1986 йил 13 июнь.

<sup>19</sup> Сифат – бош масала // Коммуна. 1988 йил 5 январ

<sup>20</sup> Янада самаралироқ ишлайлик // Совет Ўзбекистони. 1989 йил 10 ноябрь.

dastlabki qayta ishlash hamda yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi; ikkinchidan, sanoat korxonalarining moddiy-texnik bazasi, ishlab chiqarish texnika va texnologiyalari yetarli darajada rivojlantirib borilmaganligi; uchinchidan, ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish sust olib borilganligi; to'rtinchidan, ko'plab sanoat korxonalarining xom ashyo bazasi respublikalararo bog'lab qo'yilishi oqibatida 1980-yilning ikkinchi yarmidan boshlab ko'plab ittifoqdosh respublikalar o'z majburiyatlarini (masalan, xom ashyo yetkazib berish bo'yicha) bajarmasliklari kabi omillar korxonalarining ishlab chiqarish sur'atlari va mahsulot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatganida edi.

Sobiq Ittifoq davrida sanoat rivojida, asosan, davlat uchun foyda keltiruvchi sohalarga, ya'ni ko'p tarmoqli mashinasozlik, kimyo, neft', ko'mir, gaz, kon-ruda, oltin qazib olish, energetika kabi sanoat tarmoqlariga e'tibor qaratildi. Davlat tomonidan ajratilgan kapital mablag'larning katta qismi ham aynan og'ir sanoat tarmoklarini rivojlantirish uchun sarflandi. Og'ir sanoat katta kuch-qudratga, moliyaviy imkoniyatlarga ega bo'lsada, iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlay olmadi, yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari "qoldiq prinsip" asosida ta'minlanganligi oqibatida ushbu soha mahsulotlarini ishlab chiqarish miqdor va sifat jihatidan orqada qolishiga hamda aholi ehtiyojlarini chetdan import qilish evaziga ta'minlashga majbur bo'lingan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Erkinovich, T. J. (2020). The role of the press in the process of historical development of Uzbekistan: Classification of popular magazines and newspapers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1982-1989.

2. Jamshid Erkinovich Tangrikulov. (2022). PRESS IN UZBEKISTAN: CLASSIFICATION OF POPULAR MAGAZINES AND NEWSPAPERS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 1451-1455.

3. Tangrikulov, J. (2023). TEATR VA KINO SAN'ATIDA O'ZBEKISTONNING QAYTA QURISH YILLARIDAGI DAVR MUAMMOLARINING AKS ETISHI . *Interpretation and Researches*, 2(1).

4. Tangrikulov, J. (2023). TEATR VA KINO SAN'ATIDA O'ZBEKISTONNING QAYTA QURISH YILLARIDAGI DAVR MUAMMOLARINING AKS ETISHI . *Interpretation and Researches*, 2(1).

5. Xaydarova Mahliyo Khabibullaevna. (2024). DEVELOPMENT AND GROWTH OF EDUCATION. *International Conference on Multidisciplinary Science*, 2(3), 83-88.

6. Хайдарова, М. (2023). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ ВОСПИТАНИЕ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(10).

7. Xaydarova, M. (2019). MODEL AND PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CONDITIONS CONDUCIVE TO THE FORMATION OF MANAGERIAL COMPETENCE OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(11), 90-93.

8. XABIBULLAYEVNA, X. M. (2022, June). THE NEED TO TEACH THE SUBJECT OF EDUCATION IN PRIMARY SCHOOL. In *Conference Zone* (pp. 97-98).